

**MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNINI SAMARALI YETKAZIB BERISH UCHUN  
TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Dildora Egamberdiyeva**

*Samarqand davlat chet tillar institute Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz  
tili II fakulteti talabasi*

**Bahrilloyeva Umeda**

*Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili II fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *In this article the information is given about the technologies based on education in distance learning. The article also clarifies how to use these technologies during e-learning and structures of utilizing a new platform called — Nearpod.*

**Kalit sozlar:** masofaviy ta'lism, ta'lism texnologiyalari, blended learning, vebinar texnologiyalar, "Nearpod" platformasi.

Ta'lism texnologiyasi keng qamrovli sohalardan biridir. Ta'lism texnologiyasi o'r ganish, o'qitish va ijtimoiy va amalda tadbiq etishning asoslarini o'r ganuvchi yoki loyihalash fani hamda turli tadqiqot qiziqishlari majmuasi sifatida qaraladi.

Ta'lism texnologiyasi - (ing. —an educational technology) ta'lism jarayonining yuksak mahorat , san'at darajasida tashkil etilishi.

Masofaviy ta\_lim — talabalarga o\_rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni, o\_qitish jarayonida talabalar va o\_qituvchilarning interaktiv o\_zaro aloqalarini, talabalarga o\_rganilayotgan materialni mustaqil o\_zlashtirish bo\_yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o\_qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko\_nikmalarini baholashni ta\_minlovchi axborot texnologiyalari to\_plami.

Bilamizki, oxirgi o\_n yilliklar davomida masofali o\_qitishning rivojlanishi uzluksiz ta\_lim vositasi sifatida dunyo hamjamiyatining diqqat markaziga aylandi. Jumladan, 1990 - yil mart oyida Yevropa komissiyasi —Masofali o\_qitish va kasbga tayyorlashli ishchi hujjatini qabul qildi.

Bu hujjatda yuksak sifatli ta\_lim texnologiyalari markazda ishlab chiqilishi va shundan keyin joylarda tarqatilishi mumkinligi haqida so'z boradi. Masofali ta\_lim uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 1994 yilda Yevropa komissiyasi «Leonardo da Vinchi» dasturini ishga soldi. Ushbu dastur —butun hayoti davomida uzluksiz ta\_limni va tayyorlash yangi shakllarini yaratgan rassom , olim ,shoir va yozuvchilarning tajribalaridan olingan tizimdir. —Sokratli dasturi esa —uyda ta\_lim olishni yevropa mashtabiga olib chiqishli maqsadini amalga oshirishga yordam berdi.

Masofadan o\_qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda talaba o\_ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o\_qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ayniqsa , hozirgi kunda global muammoga aylanib ulgurgan va barchani tashvishga solayotgan koronavirus pandemiysi davrida butun dunyo ta'lim tizimi masofaviy ta'lim shakliga o'tdi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl' metod va vositalar majmuasidir.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari quidagi shakllarni o'z ichiga oladi:

-Blended learning ( aralash o'qitish ) -Vebinar texnologiyalar

Blended learning ( aralash o'qitish )- onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli.

Aralash o'qitish o'zida quidagi Yevropa ta'limi modellarini jamlaydi:

1.Masofaviy ta'lim ( distance learning )

2.Auditoriya ta'limi ( face to face learning )

3.Internet ta'limi ( online learning )

4.Uzluksiz ta'lim ( lifelong learning )

OTMdai blended learning ( aralash o'qitish) quidagilarga asoslanadi:

1.Onlayn ma'ruza mashg'ulotlari

2.Onlayn amaliy mashg'ulotlar

3.Internet tarmog'ida muhokama qilinadiganloyiha va guruh ishlari

4.Onlayn rejimda tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlari

5.Onlayn rejimda mustaqil topshiriladigan test

6.Onlayn rejimda tashkil etiladigan maslahat

Vebinar texnologiyalar ( ing.llwebinarll – web-based seminar ) – web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminar turidir.

Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagog – o'qituvchilar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatini qo'lga kiritishadilar. Talabalar esa o'zlarining vaqtlarini tejash bilan birga onlayn ta'limdan samarali foydalanish va dunyo standartlariga javob bera oladigan amaliy mashg'ulotlar hamda seminarlarda qatnasha oladilar.

Hozirgi kunda ommalashib borayotgan va talabalar bilan masofaviy ta'limni olib borish uchun eng samarali ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan platforma bu Nearpoddir.Nearpod – bu o'qituvchilar o'quvchilarga bilim berishda yordam berish uchun darsda foydalanish mumkin bo'lgan onlayn platforma. Bu platforma o'qituvchiga o'quvchilar uchun ular javob yoza oladigan ochiq savollar berishiga hamda javoblarni rasmlarda ifodalashga imkon yaratadi. Unda talabalar o'z ishlarini yozma ravishda bayon qilishlari yoki zarur bo'lsa chizilgan holda ko'rsatishlari mumkin. Nearpod barcha talabalarga bitta sinfga birlashishga imkon beradi va ularning har birida shaxsiy makonlari bo'lib, o'qituvchi ularga javoblari haqida o'z fikrini bildira oladi. Shuningdek, Nearpod onlayn doskasi orqali talabalar

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

o'zlarining tengdoshlari bergan javoblarni ham ko'ra oladilar, chunki barcha javoblar onlayn doskada aks etadi. Platformaning ko'ngilochar taraflariga to'xtaladigan bo'lsak, undagi — Time to Climb!! o'yini juda ahamiyatlidir. U yerda talaba biror hayvonni tanlaydi va har bir savolga to'g'ri javob uchun ular tog'ga tobora balandroq ko'tariladilar.

Umuman olganda , Nearpod platformasi COVID – 19 pandemiyasi davrida o'qituvchilar uchun eng foydali va omilkor onlayn platformalardan biri bo'ldi.

Bu platformadan foydalanishni yanada osonlashtirish maqsadida Nearpodning bir qancha qulayliklarini va unda qanday qilib mashg'otlar yaratish mumkinligini keltirib o'tmoqchimiz.

Nearpod bilan qanday qilib birgalikda o'qitish mumkin?

Nearpodda birgalikda o'qitish yordamida siz va sizning hamkasbingiz darsning tezligini nazorat qilib , o'quvchilarning javoblari to'g'risida bir vaqtning o'zida tushunchalar olib borishlari mumkin. Nearpod platformasiga qanday qilib hamkasb o'qituvchini qo'shish uchun quidagilar bajariladi:

1. Nearpod darsingizni odatdagidek jonli ishtirot etish rejimida boshlang.
2. Kod paydo bo'lganda siz birgalikda o'qitish ( co- teacher link ) havolasini qo'shishingiz mumkin. Ushbu parametrni yoqing va havoiani nusxalang.
3. Havoiani hamkasbingiz bilan o'rtoqlashing. Ularga darsga qo'shilish taklifini bildiring.

Hamkasbingiz o'zining ismini kiritib, —Darsga qo'shilish!! ( join lesson ) tugmachasini bosgandan so'ng, u darsga hammullif sifatida qo'shiladi.

Birgalikda darsni olib borayotgan o'qituvchi nimalar qila oladi va nimalarni qila olmaydi? Bu savolga quida berilgan ilova orqali javob olishingiz mumkin.

O'qituvchi Hamkasb

Darsni boshqarish:

Taqdimotga o'tish	ha	yo'q
Belgilangan vaqtida boshlash	ha	ha
Talabalarning javoblari bilan o'rtoqlashish	ha	ha
Hamkorlikdagi xabarlarni tasdiqlash	ha	ha
Darsni yakunlash ha yo'q		
Videoning ijro etish rejimini boshqarish	ha	ha
Talabalar ko'rinishiga o'tish	ha	ha
Talabalar javoblarini ko'rish	ha	ha
Talabalarni darsdan chetlashtirish	ha	yo'q

Nearpod platformasining yana bir yaxshi tomoni shundaki unda siz interaktiv videolarni bemalol yarata olasiz. Quida qanday qilib platformada video yaratish bo'yicha bosqichlar keltirib o'tilgan:

# "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Video ko'rsatma o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'rgatishning ajayib usuli hisoblanadi. Nearpod yordamida har qanday savollarni to'g'ridan – to'g'ri videoga qo'shib , videoni interaktiv qilish imkoniyati mavjud.

Mening kutubxonam (My Library) sahifasidan boshlang.Keyin chap tomonda Video yaratishni tanlang.

Nearpoddha o'qituvchining o'zi video yaratishi ,y You Tube dan qidirishi yoki platformaning kutubxonasiagi videolardan foydalanishi mumkin.

Videoni tanlaganiningizdan so'ng , video paytida savol qo'shamoqchi bo'lgan joyni tanlang va —Faoliyat qo'shishll ( Add Activity ) tugmasini bosing.

Savolningizni saqlang.

Tayyorlab bo'lgandan so'ng , videongizning yuqorisidagi ko'k satrdagi qalamni bosish orqali videongizga sarlavha qo'yishingiz mumkin, so'ngra pastki o'ng tomondagi —Saqlashll

(Save) tugmasini bosib videongizni saqlashingiz mumkin.

Xulosa o'rnila shuni aytib o'tish joizki, ta'lim texnologiyalari xilma-xildir. Ularni dars davomida qo'llash nafaqat talabaning o'qish samaradorligi oshishida , balki darsning interaktiv bo'lishida ham ahamiyati yukisakdir. Masofaviy ta'limda bunday texnologiyalarning qo'llanilishi esa hozirgi zamon talabi.

## REFERENCE:

1. Boqiev R.R. , Mamarajabov M.E. " Masofaviy ta'lim texnologiyalari "
2. Elena Nikolaevna Vyanzov : " Òquv jarayonida chekka texnologiyalarni qöllash"
3. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich : "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"